


XURSHIDA TURSUNOVA (HASANOVA)

# QO'SHIQLAR SEHRI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA XALQ IJODIYOTI VA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR ILMIY-METODIK  
HAMDA AXBOROT MARKAZI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Xurshida TURSUNOVA (HASANOVA)**

# **QO'SHIQLAR SEHRI**

*«Musiqiy ta'lif» yo'nalishi talabalariga  
«O'quv musiqiy repertuar» fani bo'yicha  
uslubiy qo'llanma*

To'ldirilgan II nashri

Toshkent  
«Muharrir» nashriyoti  
2012

**Tursunova (Hasanova), Xurshida.**

**Qo'shiqlar sehri:** («Musiqiy ta'lif» yo'naliishi talabalariga «O'quv musiqiy repertuar» fani bo'yicha uslubiy qo'llanma) /X.Tursunova (Hasanova); mas'ul muharrir O.Abdullayeva; O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlari ilmiy-metodik hamda axborot markazi, O'zbekiston davlat konservatoriysi. – T.: Muharrir, 2012. 180 b.

BBK 85.314я73

UDK: 821.512.133-1

*Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi  
Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlari ilmiy-metodik hamda axborot markazi  
va  
O'zbekiston davlat konservatoriysi  
Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan (bayonnomma № 2, 27.12.2011)  
nashrga tavsiya etilgan*

**Mas'ul muharrir:**

**Abdullayeva O.U.** – O'zbekiston davlat konservatoriyasining dotsenti, kompozitor

**Taqrizchilar:**

**Sharafiyeva N.S.** – O'zbekiston davlat konservatoriysi professori

**Mansurova G.Sh.** – R.Glier nomidagi RMMAL «Xor dirijorligi» bo'limi mudiri

Ushbu uslubiy qo'llanma taniqli bolalar kompozitori Xurshida Tursunova (Hasanova)ning bolalar va o'smirlar uchun yaratgan qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. Qo'shiqlar kompozitorning «Sevinch» bolalar vokal ansamblida olib borgan ish tajribasiga asoslanib tuzilgan. Unda maktabgacha, boshlang'ich ta'lif, o'smir yoshdagi bolalarning ovoz va rivojlov mezoniga tayaniladi. Mazkur qo'llanma musiqiy ta'lif yo'naliishi talabalar uchun «O'quv musiqiy repertuar», «Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi» o'quv fanlarida, maktabgacha ta'lif muassasalari va umumiy o'rta ta'lif maktablari, xor jamoalarida pedagogik amaliyot jarayonida qo'llash hamda «Musiqiy pedagogika» fakultetlarda pedagogik faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning pedagogik amaliyotda foydalanishlariga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur qo'llanma Oliy ta'lif muassasalarida turli ixtisoslik bo'yicha shug'ullanuvchi talabalarining «Solfedgio» hamda «Cholg' ulashtirish» fanlari jarayonida foydalanish uchun ham muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Данное методическое пособие состоит из песен для детей и подростков созданных известным композитором Хуршидой Хасановой (Турсуновой). Порядок произведений составлен на основе рабочего опыта композитора в детском вокальном ансамбле «Севинч» и предназначается для дошкольного, начального и подросткового обучения, а также предполагает развитие слуховых, интонационных и ритмических данных учащихся. Данное пособие рекомендуется для работы на занятиях по «Учебно-музыкальному репертуару», «Теории и методике преподавания музыки» в высших учебных заведениях, а также, в дошкольных учебных заведениях и для специалистов, работающих в сфере музыкальной педагогики.

Данное пособие может стать полезным для студентов ВУЗов на уроках «Сольфеджио» и «Инструментовке».

Current teaching manual consists of songs for children and teenagers written by well known composer Khurshida Khasanova. The organization of the book is designed in accordance with the author's experience in «Sevinch» children's vocal ensemble and intended for the following levels: pre-school; elementary; and teenager education. Moreover, this teaching manual helps to improve the user's listening, intonation and rhythmic skills. The book is recommended to be used during the lessons of «Music-educational repertoire» and «Theories and methods of teaching music» in higher education institutions, preschool teachings, and helpful for teachers specializing in music.

For example, it can be beneficial for the students of higher education institutions during the lessons of «Solfeggio» and «Instrumentations».

© «Muharrir» nashriyoti, 2012

© X.Tursunova (Hasanova), 2012

ISBN 978-9943-307-68-1

## KIRISH

Jahon musiqa madaniyatining barcha davrlarida yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Beg'ubor bolalik onlari har doim Vatan tuyg'usi, ota-onaga muhabbat tuyg'usi bilan hamnafasdir. Zero, yosh avlod har qanday mamlakatning kelajagi hisoblanib, unga katta umid bog'lanadi.

Yurtimizda bolalar musiqasining rivojiga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning musiqa ta'lmini takomillashtirish bilan bog'liq farmonlari, xususan, «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni fikrimizning yaqqol dalildir. Shuningdek, respublikamizda yil sayin o'tkazib kelinayotgan «Yangi avlod», «Kelajak ovozi», «San'at g'unchalari» singari tanlovlardan respublikamizdagi iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularning ijodini xalqimiz orasida keng targ'ib etishni maqsad qilgan.

Mustaqil mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalari, o'rta maktab, o'quvchilar ijodiyot markazlari kabi muassasalar uzlusiz ta'lim tizimining asosiy qatlamini tashkil etadi. ularning barchasida kelajak avlod, komil inson tarbiyasi asosiy maqsad hisoblanadi. Chunonchi, bolaning yoshlik chog'laridan oq, iste'dodini aniqlash va uni rivojlantirish muhimdir. Shu bois, undagi kasbga bo'lgan ko'nikmalarining muayyan holatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa san'ati bolaning umumiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatishi barchaga ma'lum. Bolalik ruhiyatiga mos va intellektual rivoj uchun eng qulay hisoblangan musiqiy shakllar (qo'shiq, ashula) bilan ishlash katta foyda beradi. Chunki, musiqa ta'limi bolalarda xotirani charhlaydi, muloqot madaniyatini shakllantiradi, mustaqillikni rivojlantiradi, hamjihatlik ko'nikmalarini paydo qiladi, o'ziga va o'zgalarga munosabat bildirishni o'rgatadi, quvonish va quvontirish hislarini o'stiradi, va eng muhim, o'z-o'zini tanish va jamiyatdagi o'rnini topishga ko'maklashadi. Albatta, kelajakda u qaysi kasb egasi bo'lmagan bolalikda olgan saboqlari uning faoliyatiga beg'ubor va behisob kuch sifatida ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalik chog'ida musiqa tarbiyasining nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Qo'lingizdagagi o'quv qo'llanma bolalar bilan ishlash jarayonida shakllangan bir necha yillik tajribadan kelib chiqib yaratilgan bir risoladir. Ushbu jarayonda bolalikning qaysi yoshida qanday musiqiy shakllardan foydalanish, qaysi yoshda bolalarning ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish hamda eng muhim vazifalar nimalardan iborat ekanligi haqida so'z boradi. Qo'llanmada yosh avlodga mos va xos tarzda ijod qilish, bolani san'atga yo'naltira bilish kabi vazifalar ilgari surilgan. Muallif ushbu qo'llanmani o'z tajribasidan kelib chiqqan holda o'qituvchilar va talabalar uchun uslubiy ko'rsatma hamda qo'llanma tarzida yaratdi.

O'quv qo'llanma uch bo'lim va nota adabiyotidan iborat. Birinchi bo'lim - «Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun qo'shiqlar»; Ikkinci bo'lim - «Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar uchun qo'shiqlar»; Uchinchi bo'lim - «O'smir yoshdagi bolalar uchun qo'shiqlar». Har bir bo'limda ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muayyan uslubiy tavsiyalar bayon etiladi. Qo'llanmada aks etgan nota adabiyoti esa, yuqorida qismlarda keltirilgan uslubiy tavsiyalarni amaliyotda qo'llash chog'ida ishlatish mumkin bo'lgan qo'shiqlardir. Qo'llanmaga kiritilgan har bir qo'shiq «Sevinch» bolalar vokal ansamblida ijro etilib tajribadan o'tgan.

Yuqorida nomi keltirilgan «Sevinch» bolalar vokal ansamblı 1998-yildan boshlab Toshkent shahar O'quvchilar Ijodiyot Markazi qoshida faoliyat ko'rsatadi. Ansamblning badiiy rahbari Saodat Muzaffarova, musiqiy rahbar kompozitor Xurshida Hasanova. Ushbu ansambl o'zining ijodiy faoliyati davomida ko'plab hukumat tadbirlari va san'at anjumanlarida qatnashib, bir qator Respublika tanlovlardida yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan. Qo'llanmaning nazariy bo'limida aks etgan amaliy mashq namunalari ushbu «Sevinch» bolalar vokal ansamblı ish tajribasidan olingan bo'lib, ansambl rahbarlari tomonidan yaratilgan.

Qo'llanmadan o'ren olgan musiqiy material bolalar tomonidan qabul qilinib, ijrochilik amaliyotiga tez sur"atlarda singib ketishi shubhasizdir.

---

## **I BO'LIM**

### **Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun qo'shiqlar**

(3-7 yosh)

Kichik va o'rta yoshdagi bolalar uchun musiqani tinglash va musiqa kuylash qanchalik zavqli ekanligi ma'lum holatdir. Chunki, har bir harakat - musiqa kuylash yoki jo'r bo'lish bolalarda jonli qiziqish uyg'otibgina qolmay, ularda quvonch, shodlik hissiyotlarini vujudga keltiradi. Bolalarda estetik zavq va tafakkur uchqunlarini paydo qiladi. Shu bois, ularga mos musiqiy materialni an'ana va zamon ruhiyatidan saboq beruvchi ohanglarga asoslangan holda tanlab, tavsiya etish juda muhimdir. Bolalar o'z milliy musiqiy ohanglarini qalblariga qanchalik chuqur muhrlasalar, shunchalik ularning rivoji asosli va to'g'ri bo'lishiga imkon yaratiladi. Bu yoshda bolalar hali musiqiy janrni idroklay olmasalarda, o'qituvchi ularni tarbiyalashda bir qator tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan omillarni nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yoshda bolalar musiqaning asosiy elementlarini tinglash va qabul qilishni o'rganadilar. Bunday vaqtida musiqiy materialni sifat darajasiga qarab tanlash katta ahamiyatga ega. Musiqaning asosiy elementlari bo'lgan kuy, garmoniya va ritm bolaning tinglash qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatib, uning tinglash qobiliyatining keyingi rivojlanushi, musiqiy-estetik tafakkuriga va musiqiy didiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarning ijrosi uchun tanlab olinadigan repertuarda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya e'tiladi:

1. Ma'nnaviy-ma'rifiy yo'nalishda:

- milliy ohanglar asosidagi asarlar;
- milliy ohanglarga asoslangan zamonaviy qo'shiqlar;
- bolalar harakteriga xos va tushunishi oson bo'lgan qo'shiq tanlash;
- bola tafakkurini faollashtiruvchi qo'shiqlar.

2. Mavzu yo'nalishi:

- tabiat va hayvonot haqidagi qo'shiqlar;
- hajviy va savol-javob ohanggidagi qo'shiqlar;
- vatanparvarlik qo'shiqlari;
- baxtli bolalik va b.

Boshlang'ich ta'llim jarayoni 3–4 yoshdagi bolalardan boshlanadi. Odatda, bu yoshdagi bolalar o'yinqaro, sho'x hamda qiziqqon bo'ladilar. O'qituvchi tomonidan bajariladigan ilk vazifa bolada qo'shiq aytishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishdan iborat. Bu jarayonda bajariladigan ishlar:

- a) bolalarga musiqa haqida tushunarli tilda tushuncha berish;
- b) musiqani kuylash va uni bolaning ongigacha yetkazish;

- v) musiqani cholg'uda chalish;
- g) musiqiy ovozlar vositasida parrandalar, hayvonlarning obrazini tasvirlab ko'rsatish;
- d) tovushlarning turli baland-past, yo'g'on-ingichka, kuchli va kuchsizligini misollar bilan ko'rsatib berish;
- e) qo'shiqlarning so'z bilan aytilishi, she'rning shoir tomonidan yozilishi, musiqaning esa nota bilan ifodalanishi haqida tushuncha berish;
- j) musiqiy cholg'ular bilan tanishtirib borish: rubob, dutor, doyra, surnay, karnay, g'ijjak, chang, nay, fortepiano, skripka, truba, klarnet vahokazo.

Ilk mashg'ulotlar majmuaviy darslardan tashkil topishi kerak. Ya'ni, nafas olish va uni ovoz bilan chiqarish, har xil o'yinlar bilan chalg'itish, qo'shiqnинг ohanggiga qiziqtirish, so'zini yodlatish va hokazo. Mashg'ulot davomida bola o'z gavdasini qanday tutishi, qo'l va oyoqlarni shunga mos harakatlantirishiga e'tibor berish kerak. Bu harakatlar musiqa jo'rлигida chapak chalishdan boshlanadi. Qo'llarni havoga ko'tarib aylantirish, barmoqlarni turlicha harakatlantirish, oyoqlarni musiqa usuliga xos yerga urish kabi harakatlar bola uchun juda muhim va qiziqarlidir.

Bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish jarayonida yana bir narsa, ya'ni bolalarning tez toliqishlari, charchashlariga e'tiborliroq bo'lish tavsija etiladi. Xususan, amaliy mashqulotdan so'ng musiqani tinglash va boshqa holatlarga xos bilim berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, musiqiy mashg'ulotlar davomida jimlikni saqlash, musiqani diqqat bilan tinglash, qo'shiq kuylaganda gavdani tik tutish va shunga mos harakat qilish talab etiladi.

Bolalardan tashkil topgan vokal guruhi qatnashchilariga qo'shiq o'rgatishdan avval ular bilan birgalikda turli mashqlar bajarib, fortepiano orqali ovoz sozlanadi. Bolalarga qo'shiq o'rgatilayotganda ovoz sozlash mashqlariga ko'proq ahamiyat berish kerak. Ovoz sozlash mashqlari yangicha usulda o'tiladi, ya'ni notalar o'rniga so'zlar qo'yib, ushbu so'zlar musiqiy shaklda kuylanadi. Bunday ovoz sozlash mashqlari bolalardagi musiqiy talaffuzning rivojlanishini ta'minlaydi. Ovoz sozlash mashqlari, ko'pincha, bolalar mavzusiga hos bo'lgan tez aytishlardan tashkil topgan holda musiqaga solinib, rahbarning ko'magida ayttiriladi. Masalan:

«Qarg'a qag'illaydi, chumchuq chirqillaydi»

Qar - g'a      qa - g'il - lay - di      Chum - chuq      chir - qil - lay - di

«Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq»

Oq - choy - nak - ka      oq - qop - qoq      ko'k - choy - nak - ka      ko'k - qop - qoq

Bolalarga ashula aytayotganlarida shoshmasdan nafas olib, yelkalarini to'g'ri tutish lozimligi, so'z o'rtasida nafas olish mumkin emasligi o'rgatiladi. Nafas olish mashqlari ham so'zlar bilan o'rgatiladi.

### «Og'izni oching»



Bundan tashqari, bolalarning nafas olish texnikasini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bolalar tomonidan shar puflash mashqlari bajarilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ushbu ovoz sozlash mashqi «Shirin shirin» qo'shig'inining naqoratini kuylashga yordam beradi:

Shi-rin, shi-rin so'-zim-ga, jay-ron-gi-na ko'-zim-ga.  
Of-tob ku-lib bo-qad-i, Oy-dek-ki-na yu-zim-ga.

Bolalarning ovoz diapazonini rivojlantirishda ham ovoz sozlash mashqlari bajariladi. Masalan:

### «Yaxshi nafas olamiz»

Yax-shi-na-fas o-la-miz

Bunday mashqni bajarish chog'ida nafasni darrov sarflab yubormay, balki, uni ohangning so'ngiga qadar bir maromda ushlab turish zarurdir. Bu holatni ham bolalarga tushunarli qilib yetkazish kerak.

Ushbu ovoz sozlash mashqi «Sharlar» qo'shig'inining naqoratini kuylashga yordam beradi:

Shar-lar, shar-lar, o-pa sim-gil-lar.  
Shar-lar, shar-lar, ko'n-gil-ni xush-lang-lar.

Musiqiy ohanglarni to'g'ri talaffuz etishning yana bir usluli quyidagicha:

### «Yuqoriga yuramiz, endi pastga tushamiz»

Yu-ko-ri-gu yu-ra-miz En-di past-ga tu-sha-miz

Bolalarning yuqori notalarni aniq talaffuz qila olmasligi boshlang'ich guruhlarda uchraydigan qol. Bunda bolalarga yuqori diapazondagi kuylanadigan so'zlarni qattiq baqirib aytish o'rgatiladi. Masalan, «oyi» deb baqirish. So'ngra ushbu so'z yuqori tovushda musiqaga solib ijro etiladi. Ular buni bajarganlaridan so'ng ularga ohang bilan baqirish o'rgatiladi va shu holat bir necha marta takrorlanganidan so'ng qo'shiqlarni yuqori tovushda bemalol aytishga erishish mumkin.

Boshlang'ich va o'rta guruhlarda ko'proq hayvonlarga taqlid qilib ovoz sozlash mashqlarini bajarish mumkin. Bunday shakllar yordamida maqsadga tezroq erishish mumkin.

Bolalarga uyda mustaqil ravishda qo'shiq o'rganish va aytishga ruxsat berilmaydi. Sababi, bola qo'shiqni noto'g'ri aytib o'rgansa, doimo noto'g'ri aytadigan bo'lib qoladi va bu holatni to'g'irlash qiyin. Mashg'ulotlarda aytildigani qo'shiqlar audiokasseta, diktofon, disklarga yozib olinib, guruh rahbari ruxsat bergandagina audioapparatura yordamida uyda mashq qilish mumkin.

Ovoz sozlash mashqlari tugagandan so'ng qo'shiqning matni tahlil qilinadi. Qo'shiq matnni yozgan shoir, musiqani bastalagan bastakor haqida ma'lumot beriladi. Bunda she'rning mazmuni batafsil yoritilishi kerak. Bunday mashg'ulotlar suhbat shaklida o'tishi ham mumkin. Suhbat chog'ida bolaning berilgan mavzu yuzasidan fikrini tinglash, mavzu xususida mulohaza yuritish ishlari bolalarning o'z fikrini yorqin ifodalay olishi, fikr yuritishda yon atrofidagilardan uyalmasligi, shuningdek, mavzu haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi kabi omillarning rivojlanishi ta'minlab beradi.

Bunday suhbatlar chog'ida she'riy matnda bolalar uchun tarish yoki notanish so'zlar ham uchraydi. Ushbu so'zlarning, awvalambor, to'g'ri talaffuz etilishini tinglash va ma'nosini anglash - birlamchi vazifadir.

Qo'shiqni o'rganish she'rning naqoratidan boshlanadi. Har bir she'rning naqorati bolalarning tez yodida qoladi, so'ngra esa qolgan satrlari o'rganiladi. Bolalarning boshlang'ich guruhlari uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- ovoz sozlash mashqlarining soni 3-4 tadan oshmasligi lozim;
- ovoz baland diapazonga asta-sekin ko'tariladi;
- musiqiy asarlarning diapazoni kvinta oralig'ida bo'lishi, seksta intervalidan oshmasligi lozim;
- qo'shiq tonalligi va metro-ritmik jihatlari oddiy va ravon bo'lishi talab etiladi. Kuy harakatlari ham bosqichma-bosqich, sakramalarsiz tuzilishi, ohang esa sodda va tez yodda qoladigan bo'lishi lozim. Kuyga joziba beruvchi sinkopalar ishlatish ham yaxshi natijalar beradi.

### **Savollar**

1. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar vokal jamoalaridan qaysilarini bilasiz?
2. Muallif ushbu kitobni nimaga asoslanib bo'limlarga bo'lgan?
3. Maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun qanaqa ovoz sozlash mashqlarini bilasiz?
4. Diapazon nima?
5. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning kuylash diapazoni qanaqa?
6. Interval nima?
7. Registr nima?
8. Unison nima?
9. «Sharlar» qo'shig'inining naqoratida nimaga ahamiyat berish kerak?
10. «Shirin qizchaman» va «Shirin-shirin» qo'shig'inining o'xshash tomonlari nimadan iborat?
11. Birinchi bo'limdagi qaysi qo'shiq naqoratdan boshlanadi?
12. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga qo'shiq o'rgatishda matnni yodga olish uslubi qanday?
13. Yuqori tovushlarni olishga erishish uchun qanday uslubdan foydalilanadi?
14. Akapella nima?
15. Diksiya nima?
16. Konsonans nima?
17. Dissonans nima?

## II BO'LIM

### **Boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalar uchun qo'shiqlar**

(7-10 yosh)

Boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalar musiqiy ta'lism jarayonining o'rta guruhiga to'g'ri keladi va 7-10 yoshli boshlang'ich sinf bolalarini tashkil etadi. Ushbu guruhga mo'ljallangan barcha turdag'i mashqlar hamda ularga tavsiya etiladigan qo'shiqlar imkoniyat jihatidan boshlang'ich guruhga nisbatan murakkabroqdir. Bu, avvalo, ularning yoshi, ovoz rivoji hamda musiqani o'zlashtirishi bilan bog'liqdir.

Guruhda mashqlar ovoz sozlash bilan boshlanadi. Ovoz sozlash mashqlarida kichik guruhga nisbatan rivojlangan elementlarni sekin-asta kiritish foyda beradi. Bunda kuylash ko'nikmalarini ikki ovozli mashqlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir:

«Ovoz sozlaymiz, ikki ovozda»



Ushbu ko'rsatilgan mashqda musiqiy mato bir ovozlik ko'rinishda boshlanib, ikki ovozlikka o'tadi. Ushbu mashqni sekvension uslubda yuqoriga va pastga harakatlartirib o'rgatish kerak.

Avval oddiy, keyinchalik har bir ovoz tomonidan mustaqil harakat qilish bilan kuyylanadigan mashqlar ijobjiy natija beradi.


Ushbu guruh bilan ishslashda ikki ovozli musiqiy matoga erishish yo'llari quyidagicha bo'ladi<sup>1</sup>:

1. Qo'shiqning birinchi ovozini jamoani guruhlarga bo'lmay turib, butun jamoaga birdek mukammal o'rgatiladi;

2. Butun jamoa qo'shiqning birinchi ovozini o'rganib bo'lganidan so'nggina ikkinchi ovozni yana xuddi shu yo'sinda butun jamoaga o'rgatiladi;

3. Ikkala ovoz to'la o'zlashtirilganidan keyin jamoani ikki guruhga bo'lib, ikki ovozli shaklda ishslash kerak. Bunda rahbar bolalarni qaysi guruhga kiritishini oldindan bilishi zarur bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan uslub muallifining fikriga ko'ra, samarali natija beradi. Masalan, «Xumo qushim» qo'shig'inining naqorati:



<sup>1</sup> Ushbu uslubiy tavsiyalar «Sevinch» vokal guruhi rahbari Saodat Muzaffarovaga tegishli.



Ikki ovozlikka asoslangan misollardan yana biri «Sho'x bolalik» qo'shig'inining naqorati:

O'qituvchi bolalarga mashq o'tish jarayonida o'rta guruhning mashqlaridagi ovoz hajmi, ya'ni diapazoniga e'tibor qaratishi lozim. Bu jarayon ularning ovozlarini sozlash bilan boshlanadi. Unda o'qituvchi ko'rsatilgan (tanlab olingan) diapazon bo'yicha 5 yoki 6 ta tuzilmadan iborat mashqlardan foydalanishi lozim. Masalan, tezaytishlar, so'zlarни aniq talaffuz etish, ohanglarni ravon kuylash, intervallarni sakram bilan olish va ularni bosqichma-bosqich to'ldirish, uchtovushliklar bilan kuylash kabi o'ziga xos mashq turlaridan foydalanishlari ijobjiy natija beradi.

To'plamda keltirilgan aksariyat qo'shiqlarning melodik yo'lida minor uchtovushligi tovushlari bo'ylab harakatlanish kuzatiladi. Bunday melodik harakat esa kuylash uchun murakkabdir:

«O'gil-qizlar» qo'shig'inining naqorati:

«Qaldirg'och» qo'shig'inining bandi:


Melodik harakatning sofligiga erishish uchun quyidagi mashqdan foydalanib ish ko'rish tavsiya etiladi:

### «Biz minor kuylaymiz»



va hokazo.

Qo'shiqlarni ijro etishda tug'iladigan yana bir murakkablik – metro-ritmdir. Metro ritmik jihatdan qiyinchilik kasb etadigan qo'shiqlar «Shamol», «Mehrli kunlar», «Sehrli ertak», «Qaldirg'och». Bu qo'shiqlarda uchraydigan ritmnini avvaliga chapak chalish yo'li bilan eslab qolish kerak. Masalan, «Shamol» qo'shig'inining naqoratini quyidagicha o'rganish kerak:



Ritmik murakkab bo'lgan ushbu misolni avval chapak chalib o'rganish kerak. Bunda so'zlarning talaffuziga ham katta e'tibor berish zarur bo'ladi. She'riy matn va ritmnining aniq va ravon yangrashiga erishish zarur. So'z va ritm aniq o'zlashtirilganidan so'ng ohang yo'li o'rganiladi. O'z o'rniда, kuy yo'lida ham oktava, kvinta intervallariga sakramalar kuzatiladi. Ushbu sakramalarning sifatli yangrashiga erishish uchun yuqorida keltirib o'tilgan mashqlardan foydalanish zarur.



Qo'shiqning mazmuni va harakteri ohangi stakkato uslubida, yengil kuylashni talab etadi.

O'rta guruh bolalari uchun musiqiy kuylarni tanlashda yoshiga mos, ijroga xos va nisbatan murakkabroq harakterdagi qo'shiqlar tanlash maqsadga muvofiqdir. Qo'shiq tanlashda ulardagi harakatlarga e'tibor qaratish kerak. Odatda, ularning kuy-ohang harakatlarida oktava intervaliga bo'lgan sakramalar hamda qarama-qarshi harakat keng o'rinni olishi mumkin. Qo'shiqlarning metro-ritmida esa, jo'shqinlik hamda quvonch hissini aks ettiruvchi sinkopalar bo'lishi taqozo etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy bolalar estrada musiqasida qo'llaniladigan qo'shiqlar ishlataladi. Jumladan, «Shamol», «Bolalar», «Sho'x bolalik», «Bor ekan», «Mehrli kunlar», kabi qo'shiqlarni tavsiya etish mumkin. Chunki, bu qo'shiqlarda zamonaviy estrada musiqasiga xos ikki ovozli, ayrim avj qismlarida uch ovozli musiqiy shakllaridan foydalanilgan. Bu esa bolalarning rivojlanish ko'nikmalariga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Bu yoshdagи bolalarning musiqiy tarbiyasi chog'ida ularni nafaqat kuylash va tinglashga o'rgatish, balki, musiqaning yangrash chog'ida raqsga tushish, musiqaning

harakteriga xos harakatlarni amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirish ham katta aharniyat kasb etadi. Zero, bolaning eshitish va kuylash qobiliyati rivojlanayotgan bir paytda undagi jismoniy sezgirlik hissining ham bir paytda rivojlanishi muhimdir. Binobarin, musiqiy obrazning karakterini to'g'ri anglash va unga munosabat bildirish ko'nikmasi insonning bolalik davridan boshlab rivojlanadi.

Bolaning musiqiy tarbiyasini raqs va turli xil harakatlar bilan omuxta qilgan holda rivojlantirish, bolaning motorikasini rivojlantiradi, va umuman, energiyaning to'g'ri va unumli sarflanishiga olib keladi.

O'rta guruhlar uchun quyidagi harakterdagи qо'shiqlar tavsiya etiladi: «Soat», «O'zbekiston - jannat», «Kamalak», «Pilla qurtim», «Sehrli ertak», «Buvijon», «Mehrli kunlar», «Shamol» va hokazo.

### **Savollar**

1. Ovoz sozlash mashqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Ovoz sozlash mashqlari nima uchun kerak?
3. Kuy yo'lida oktava intervali uchraydigan qaysi qо'shiqlarni bilasiz?
4. Minor ladi nima?
5. Major ladi nima?
6. Minor va major ladining farqi nimada?
7. Kuy yo'lida minor uchtovushligiga asoslangan musiqiy harakat mavjud bo'lgan qо'shiqlarni o'rganishdan oldin qanday ovoz mashqlari o'rgatiladi?
8. Sinkopa?
9. Triol nima?
10. II-bo'lim qо'shiqlarining I-bo'lim qо'shiqlaridan farqi nimada?
11. Ikki ovozlik qay tarzda o'rgatiladi?
12. Duet nima?
13. Tembr nima?
14. Diatonika nima?
15. «Shamol» qо'shig'ining boshqa qо'shiqlardan farqi nimada?
16. To'plamda keltirilgan sho'x harakterli qо'shiqlar qaysilar?
17. Triol cho'zimlari uchraydigan qо'shiqlarning nomlarini ayting.
18. Sinkopa uchraydigan qо'shiqlarning nomlarini ayting.
19. Vokaliz nima?
20. Dinamika nima?

---

---

### **III BO'LIM**

#### **O'smir yoshdag'i bolalari uchun qo'shiqlar**

(10-15 yosh)

10–15 yoshdag'i bolalar jamoasi katta guruh deb yuritiladi. Bu davrda bolalar aqlan va jismonan rivojlanib, mustaqil fikr-mulohaza yuritadigan, mustaqil ravishda dars tayyorlaydigan, kelajakka rejalar tuzadigan holatga etadilar. Bu davrda yoshlarning musiqiy-estetik didi va tafakkuri rivojlangan bo'lib, ular o'z did-farosatiga qarab, musiqa tinglashi, kitob o'qishi holatlarini kuzatish mumkn. Shuning uchun ham, bu yoshdag'i bolalar zamonaviy musiqa bilan qiziqib, jahon musiqa madaniyatida ko'zga ko'ringan sozanda va xonandalarning ijrolarini tinglashga harakat qiladilar, ularning ijo dasturini yod oladilar. Buning natijasida, yoshlarda san'atga qiziqish tobora ortadi. Bunday qiziqish natijasida, ular o'zlar yoqtirgan xonandalarning qo'shiqlarini xirgoyi qilib yurishadi. Bunday xirgoyilarga qarab, musiqa rahbarlari bolaning yoshitish qobiliyatini hamda ijo imkoniyatlarining darajasini aniq belgilab olishlari mumkin.

Jahon musiqa madaniyatiga oid bo'lган eng sara yulduzlarning qo'shiqlarini tinglash natijasida o'smir yoshdag'i bolalarda murakkab asarlarni kuylashga nisbatan kuchli intilish paydo bo'ladi. Buning natijasida, o'smirlar bolalik davridagi qo'shiqlarini kuylamay, balki nisbatan murakkab, katta yoshdag'i estrada xonandalarning ijo repertuariga mos bo'lган qo'shiqlarni kuylashga qiziqish bildiradilar. Bunday vaqtarda, musiqa rahbarlari yuzaga kelgan holatga nisbatan mas"uliyatlari bo'lishlari talab etiladi. Zero, bolalar o'zlarining yoshiga mos va xos bo'lган dasturni ijo etishi zarur. Shu bois, ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli murakkablik darajasidagi asarlarni tanlash lozim bo'ladi.

O'smir yoshdag'i bolalar uchun mo'ljallangan barcha turdag'i ovoz sozlash mashqlari ham shunga xos tanlanadi. Ushbu ovoz sozlash mashqlari qo'shiqlarning musiqiy materialidan olingan musiqiy iboralar shaklida bo'lishi ham mumkin. Zero, qo'shiqda mavjud bo'lган shakllarni alohida o'rganish qo'shiqda umumiy ijo mahoratining o'sishiga olib keladi.

Shunday mashqlardan quyidagicha:

O - voz soz-lash mashq-la - ri - miz en - di qi - yin - roq.

O - voz soz-lash mashq-la - ri - miz en - di qi - yin - roq.

Ushbu mashqni sekvensiyan tarzda eng yuqori notalari ikkinchi oktavaning «mi», «fa» tovushlariga yetgunga qadar yuqoriga tomon harakatlantirish kerak.

Ushbu ovoz sozlash mashqlari birinchi va ikkinchi bo'limlarda berilgan mashqlardan o'z murakkabligi bilan farq qiladi. Bu mashqlar ritmik va ohang jihatdan qo'shiqlarning musiqiy matosiga yaqin turadi.

Odatga ko'ra, ovoz sozlash mashqlari murakkab nafas olib, undan unumli foydalanish usullari, oktavadan katta bo'lgan diapazonlarda shug'ullanish maqsadga muvofiqdir (ovozi diapazoni pastki kichik oktava «sol»« tovushidan ikkinchi oktava «mi» tovushigacha yetadi).

Ovoz yurgizishdagi mashqlar hamda shug'ullanish muddatiga ham ko'proq vaqt ajratib, 7–8 turdag'i ovoz sozlash mashqlarini qo'llash lozim. Mashqlar professional xonandalar darajasida olib boriladi. Qolaversa, o'qituvchi uch ovozli, hatto, to'rt ovozli musiqiy iboralarni o'z ichiga olgan shakllardan foydalanishi mumkin. Bu mashqlar bolalarning ijro repertuarini oson o'zlashtirishiga zamin yaratadi.

Ushbu ko'p ovozli mashq orqali xonandalar bir-birini tinglashni, ansambl shaklida kuylashni va garmonik jo'rovozlikni tashkil etishni o'rganadilar. Shu bilan birga, jamoa jo'rliksiz, akapella shaklida kuylashga erishadi. Shu bois, guruh rahbarlari dars jarayonida ushbu mashqqa o'xshash boshqa garmonik ketma-ketliklarni tuzib turli tonallikkarda kuylatishlari mumkin.

Uch ovozli musiqiy matoga erishish qo'llanmaning ikkinchi bo'limida ta'riflangan ikki ovozli jamoaviy kuylash uslubi yordamida amalga oshiriladi. Masalan, «Tinchlik bo'lsin» qo'shig'inining naqorati:

Quyida keltirilgan misolda musiqiy mato ikki ovozlikdan asta sekin uch ovozlikka o'tadi:

1.

Va-tan qo-ra ko'-zim- dir,  
dil-dan chiq-qan so'-zim- dir.

Ar-doq-lay-man o-nam-dek,  
Va-tan xal-qim o'-zim-dir.

2.

Va-tan xal-qim o'-zim-dir.

O'qituvchilar katta guruh uchun tanlanadigan ijro repertuariga alohida e'tibor berishi talab etiladi. Chunki, katta guruhdagi bolalar ijro mahorati jihatidan professional darajaga javob bera olishi mumkin.

Asarlarning metro-ritmik tomonlama jozibador va murakkabligiga e'tibor berish kerak. Qo'shiqlar kuy-ohang jihatidan harakatchan, turli xil sakramalar bilan ifodalangan, ritmik va garmonik rang-barang, o'smirlarga xos kuylash harakteriga mos bo'lishi taqozo etiladi. Qo'shiqlarning harakterida yuqori professionallik jihatlari, zamonaviy musiqaga xos ilg'or texnikaviy vositalar yordamida aks etadigan elementlar mavjud bo'lishi zarur.

Katta guruhga oid ijro repertuari quyidagicha:

1. Milliy yo'nalihsidagi qo'shiqlar: «Lola», «Nargizlar», «Shodiyona», «Mehr qo'shig'i», «Majnuntol», «Go'zal hayot»;

2. Zamonaviy estrada yo'nalihsidagi qo'shiqlar: «Hayol», «Dunyo go'zal», «Tinchlik bo'lsin», «Negadir».

Zamonaviy klassik yo'nalihslarni o'zida jamlagan qo'shiqlari: «Hayr, bolalik», «Do'stlar kuylaydi», «Hayot» va h.k.

### **Savollar**

1. Yakka va guruh bo'lib kuylashning farqi nimada?
2. Baland tovushlarini olish uchun qaysi ovoz mashqlaridan foydalanish kerak?
3. Ill-bo'limga tegishli qo'shiqlar qaysi yoshdagagi xonandalar uchun mo'ljallangan?
4. Ritmik jihatdan murakkab bo'lgan qo'shiqlar ustida qanday uslub bo'yicha ishlash kerak?
5. Uchinchi bo'limdagi qaysi qo'shiqlar ritmik jihatdan murakkab?
6. Modulyatsiya nima?
7. Uchinchi bo'limdagi qaysi qo'shiqlarda modulyatsiya ko'p ishlatilgan?
8. Og'ishma nima?
9. Uchinchi bo'limdagi qaysi qo'shiqlarda og'ishma ishlatilgan?
10. Kuy yo'lida kvinta intervali uchraydigan qo'shiqlar ustida ishlash uslubi qanday?
11. Matn nima?
12. Uch ovozlik kuylashga qaysi yo'l bilan erishiladi? Misollar keltiring.

13. To'rt ovozlik kuylashga qaysi yo'l bilan erishiladi? Misollar keltiring.
14. Ansambl nima?
15. Melodik sakrama nima?
16. Rechitativ nima?
17. Trio nima?
18. Mutatsiya nima?
19. Transpozitsiya deganda nimani tushunasiz?
20. Bolalarning ovozi necha turga bo'linadi? Ularni aytib bering.
21. Ommaviy kuylash deganda nimani tushunasiz?
22. Lad nima?
23. Lyuftpauza nima?
24. Uchinchi bo'limdagi ommaviy qo'shiq harakterida yaratilgan misollarni keltiring.
25. Milliy yo'nalishdagi qo'shiqlar qaysilar?
26. Zamonaviy estrada yo'nalishidagi qo'shiqlar qaysilar?

---

## ATAMALAR LUG'ATI

**A capella** – cholg'u asboblar jo'rligisiz xor bo'lib kuylash. Bunday uslubda xor to'laqonli mustaqillik va tugallanganlikni namoyon etadi.

**Akkord** – uch va undan ortiq tovushlarning birgalikda yangrashi.

**Aksent** – muayyan tovush yokiakkordga urg'u berish.

**Alteratsiya** – tovushning nomini o'zgartirmagan holda uni yarim tonga ko'tarish yoki pasaytirish: diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol, bekar.

**Annotatsiya** – musiqiy asar, uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot bo'lib, uning shakli, janri, tuzilishi haqidagi axborotni o'z ichiga oladi.

**Applikatura** – musiqiy sozlar ijrosida barmoqlarning joylashuvi.

**Artikulyatsiya** – tovushlar talaffuzida zarur bo'lgan nutq organlari faoliyati.

**Auftakt** – qo'l bilan ishora qilmoq. Ogohlantiruvchi qo'l ko'tarish harakatidan iborat dirijorlikning o'ziga xos imo-ishorasi.

**Vokaliz** – so'zsiz kuylash uslubi.

**Garmoniya** – musiqaning ifoda vositalaridan bo'lib, tonlarning ohangdoshlikka qonuniy birlashishi va ohangdoshliklarning ketma-ket bog'lanishiga asoslanadi.

**Gomofoniya** – bir ovozning yetakchi bo'lib, qolgan ovozlarning unga jo'r bo'lishi.

**Diapazon** – ovoz yoki cholg'uning eng past tovushidan tortib, to eng baland tovushigacha bo'lgan tovushlar hajmi.

**Diksiya** – kuylashda she'riy matnni to'g'ri talaffuz qilish.

**Dinamika** – tovushlarning sadolanish kuchi bilan bog'liq bo'lgan jarayon majmui: forte, piano, crescendo, diminuendo va b.

**Dissonans** – noohangdoshlik hissini uyg'otuvchi va konsonansni bartaraf qilishga yo'naltirilgan hamohanglik.

**Interpretatsiya** – musiqa asarining ijrochi tomonidan talqin etilishi.

**Kamerton** – muayyan balandlikka ega bo'lgan va aniq tovush beruvchi maxsus asbob. Ijrochilik amaliyotida cholg'u asboblar, orkestr va xor jamoalarini sozlashda balandlik etalon.

**Konsonans** – ohangdoshlarning o'zaro mutanosibligi, hamohangligi.

**Lad** – turli balandlikdagi musiqiy tovushlarning tizimli munosabati. Turg'un pog'onalarining noturg'un pog'onalar bilan o'zaro bog'liqligiga asoslanadi.

**Lyuftpauza** – musiqa asarini ijsro etish jarayonida qisqa muddatli to'xtash.

**Metronom** – musiqa asari sur'atini aniqlaydigan asbob.

**Mutatsiya** – balog'atga etish davrida bolalar ovozining kattalar ovoziga o'tishi.

**Ommaviy kuylash** – qo'shiqning bir guruh xonanlar tomonidan ijro etilishi.

**Partitura** – xor, ansambl yoki orkestrga mo'ljallangan musiqa asarining to'liq nota yozushi.

**Polifoniya** – ikki va undan ortiq kuychan ovozlarning bir vaqtida qo'shilishi va shu asnoda rivojlanishiga asoslangan ko'povozlilik turi.

**Registr** – ma'lum tessitura oralig'idagi o'ziga xos tovush tembri bilan ajralib turuvchi ovoz diapazoni qismi.

**Repertuar** – turli konsertlarda ijro etiladigan yoki musiqiy ta'lim jarayoniga o'r ganiladigan asarlar majmui.

**Repetitsiya** – mashg'ulot, tayyorganlik, konsert dasturi yoki spektaklni tayyorlashda dirijorning ijrochilar bilan o'tkazadigan tayyorlov mashg'ulotlari.

**Rechitativ** – vokal musiqa turi, intonatsiya va ritm jihatidan oddiy yoki deklamatsiyali bo'lib, so'zlarni qisqa, odatda nutqiy ohanglar talqin etadi.

**Sekvensiya** – melodik yoki garmonik iboraning yuqorilashib yoki pasayib takrorlanishi.

**Sinkopa** – taktning kuchsiz hissasiga urg'u berish va uni cho'zish.

**Sol'fedjiolash** – notalar nomini aytib kuylash.

**Tembr** – tovush tusi, turli cholg'u asboblar yoki turli ovozlarda ijro etilgan bir xil balandlikdagi tovushlarni farqlash imkonini beruvchi sifat.

**Tessitura** – har qanday cholg'u yoki xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarining balandlik holati. Tessitura past, o'rtta, baland bo'ladi. Shunga qarab tessitura qulay va noqulay deyiladi. O'rtta tessitura kuylash uchun qulay bo'lib, undan foydalana bilish ijrodagi vositalardan biridir.

**Transpozitsiya** – musiqa asarini ma'lum interval balandga yoki pastga ko'chirish.

**Unison** – ikki yoki undan ortiq ovozlarning bir xil balandlikda yangrashi.

**Falset** – fistula, ya'ni o'ta baland tovushlarni shakllantirish usuli, shuningdek, erkaklar ovozining eng yuqori registri.

**Fermata** – tovush, akkord yoki pauzani cho'zish belgisi.

**Xormeyster** – xor dirijori, xor rahbari.

**Sezura** – musiqiy iboralar orasidagi chegara. Qisqa va sezilarli pauza ko'rinishida ijro etilib, kuylashda ko'pincha nafas almashishi bilan kechadi.

**Qo'shiq** – vokal musiqaning keng tarqalgan janri, unda musiqiy-she'riy mazmun uyg'unlashadi. Qo'shiq she'rlari bir necha bandli va naqoratli bo'ladi. Qo'shiqlar vatanparvarlik, mehnat, ishqiy-lirik, qahramonlik mavzularini madh etadi.

# *I BO'LIM*

## Sharlar

O'rta

Xurshida Hasanova musiqasi.  
P.Mo'min so'zi

The musical score consists of five staves of music. The top two staves are for the piano, showing chords and bass notes. The bottom three staves are for the voice, with lyrics written below them. The music is in 2/4 time, with a key signature of one sharp (F#). The vocal part starts with a melodic line, followed by a section where the piano provides harmonic support. The lyrics are:

Biz shar - lar - miz sho - shar - miz, Tom - lar - dan ham  
 o - shar - miz. Biz shar - lar - miz o' - jar - miz yer - dan yer - ga  
 ko' char - miz. I - pi - miz dan ush lang - lar



Ko'n - gil - lar - ni hush - lang - lar. Yer - ga qat - tiq ur - mang - lar,

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It consists of a series of harmonic chords, primarily consisting of three-note chords (triads) played on the first and second beats of each measure.

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It features a melodic line with quarter notes and rests, continuing the pattern established in the previous measures.

ta-g'in yig' - lab yur - mang - lar.

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It consists of a series of harmonic chords, primarily three-note chords, continuing the harmonic pattern.

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It features a melodic line with quarter notes and rests, continuing the established pattern.

Shar - lar, shar - lar, o - pa sin gil - lar.

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It consists of a series of harmonic chords, primarily three-note chords, continuing the harmonic pattern.

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It features a melodic line with quarter notes and rests, continuing the established pattern.

Shar - lar, shar - lar, ko'n - gil - ni hush - lang - lar

A musical staff in G major (one sharp) and common time. It consists of a series of harmonic chords, primarily three-note chords, continuing the harmonic pattern.

Tamomlash uchun

A musical score for two voices. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. Both staves have a key signature of one sharp (F#). The lyrics 'Sha - lar' are written below the first measure of the top staff. The music consists of eighth and sixteenth note patterns.

1. Biz sharlarmiz shosharmiz,  
Tomlardan ham osharmiz.  
Biz sharlarmiz o'jarmiz,  
Yerdan-yerga ko'charmiz.

Ipimizdan ushlanglar,  
Ko'ngillarni hushlanglar.  
Yerga qattiq urmanglar,  
Tag'in yig'lab yurmanglar.

Naqarat:  
Sharlar, sharlar, opa-singillar,  
Sharlar, sharlar, ko'ngilni hushlanglar.

2. Bizlar opa-singilmiz,  
Havodan ham yengilmiz.  
Bizlar yappa-yangimiz,  
Yeti xildir rangimiz.

Ipimizdan ushlanglar,  
Ko'ngillarni hushlanglar.  
Yerga qattiq urmanglar,  
Tag'in yig'lab yurmanglar.

Naqarat:

# Nastarin

Xurshida Hasanova musiasi  
I.Jiyanov so'zi

O'rta



:8.

Bog'-dan se - ni iz - la- dim... O - yi - jo - nim - ga se - ni

sov - g'a et - moq is - ta - dim.

1. Gullaring mayda-mayda,  
Ochilding qaysi joyda.  
Kim senga teng keladi,  
Go'zallikda, chiroyda.

Naqarat:  
Marjon-marjon nastarin,  
Bog'dan seni izladim.  
Oyijonimga seni,  
Sovg'a etmoq istadim.

2. Bo'yлaring shirin buncha,  
Hidlaring olay to'yguncha.  
Senga boqqaп ko'zlarga  
Shodlik berasan qancha  
Shodlik berasan qancha.

Naqarat:

# Mitti sayyora

Kurshida Hasanova musiqasi

I.Jiyanov she'ri

**O'rtta**

Qay- da - dir o - lis

fa zo - da,  
Mit- ti say-yo - ra ke - za - di.

U - ni ha - li hech kim bil - mas., qal- bim se - za - di.

Shi - rin o' yin - chog' lar, a - sal qo' g'ir - choq - lar  
 Go' - zal yul - duz - cha lar Sir - li bu ke - cha lar  
 me - ni o' - zi ga chor-lar o' - zi-ga chor-lar. Tamomlash uchun  
♩

- |  |  |
|--|--|
| 1.Qaydadir olis fazoda,<br>Mitti sayyora kezadi.<br>Uni hali hech kim bilmas<br>Qalbim sezadi. | 2.Qachondir o'zim boraman,<br>Sehrli, go'zal manzilga.<br>Hammaga sovg'a olaman,<br>Qaytaman yana. |
|--|--|

Naqorat:  
 Shirin o'yinchoqlar,  
 Asal qo'g'irchoqlar,  
 Go'zal yulduzchalar,  
 Sirli bu kechalar,  
 Meni o'ziga chorlar..

# Shirin qizchaman

Xurshida Hasanova musiqasi  
I.Jiyanov sheri

Tez

Bo - g'im - da - gi

gul - lar - ga suv - lar qu - yib tu-ra - man.

Say - ro - qi quush - lar bi - lan shi - rin sus - bat

qu ra - man. O'-zim shi - rin qiz - cha - man,

Miso - li yul - duz - cha - man. Qo' shiq ayt - sam

shod - la - nib, Sa - mo - lar - ga ucha - man.

Shi - rin

qiz - cha - man, shi - rin qiz - cha man,

Baxt - ni qu - cha - man, Shi - rin qiz - cha

man.

Tamomlash uchun

1. Bog'imdagi gullarga,  
Suvlar quyib turaman.  
Sayroqi qushlar bilan,  
Shirin suxbat quraman.

2. Dunyoda hamma narsa,  
Doimo go'zal bo'lsin.  
Istagim har bolaning,  
Qalbi sevinchga to'lsin.

Naqorat:  
O'zim shirin qizchaman,  
Misoli yulduzchaman.  
Qo'shiq aysam shodlanib,  
Samolarga uchaman.

Shirin qizchaman,  
Shirin qizchaman.  
Baxtni quchaman,  
Shirin qizchaman.

Naqorat:

# Bog'imiz-do'stlik bog'i

Xurshida Hasanova musiqasi  
P.Mo'min she'ri

**Quvnoq**

The musical score consists of five staves of music. The top staff shows a piano part with bass and treble clefs, in 2/4 time with a key signature of one sharp. The vocal parts begin on the second staff, also in 2/4 time with one sharp. The lyrics are written below the notes. The vocal parts continue on the third, fourth, and fifth staves, each with its own unique melodic line. The piano part continues throughout all staves.

Bo - g'i - Miz do'st

lik bo - g'i, Of - tob ka - bi qu - cho - g'i.

Tong - da yash - nar ham - mayay - rar, Bosh-la - na - di o' - yin- lar.

Raq - qo - sa - lar, kuy - chi - lar,

Du-tor - chi-lar, nay - chi - lar, Chi - qib - to'r - ga o'r - ta - ga,

1. San` a - ti-ni ko'r-sa - tar.

2.

San` a - ti-ni ko'r - sa - tar.

1. San` a - ti-ni ko'r-sa - tar.

2.

# 8.

Tamomlash uchun

1. Bog'imiz do'stlik bog'i,  
Oftob kabi quchog'i.  
Tongda yashnar,  
Hamma yayrar,  
Boshlanadi o'yinlar.

Naqorat:  
Raqqosalar,kuychilar,  
Dutorchilar,naychilar,  
Chiqib to'rga, o'taga,  
San'atini ko'rsatar.

2.Qo'shiqlarning yangrog'i,  
Qo'shiqlarning sho'hrog'i,  
Qiziydi davra,  
Bezaydi davra,  
O'yinlarni ko'ringlar.

Naqorat:

# Sharshara

Xurshida Hasanova musiqasi  
D.Rajab she'ri

Tez

The musical score consists of four systems of music. The first three systems are for piano, with the fourth system combining piano and voice. The piano parts feature various rhythmic patterns and dynamics. The vocal part in the fourth system includes lyrics: "Bir qa ra,- Tosh - lar ga". The score is written in common time with a key signature of one sharp.

1.

2.

Bir qa ra,-  
Tosh - lar ga

3.

4.

bir qa- ra,-                    Ne go' - zal                    man - za - ra.\_\_\_\_\_  
 tosh u- rib,                    Kuy lay - di                    shar - sha - ra.\_\_\_\_\_

Shar - - - sha - ra,

shar - sha - ra,                    sho - sha - sa - n\_\_\_\_\_

1.

A musical score for voice and piano. The vocal part is in soprano clef, G major (two sharps), common time. The piano part is in bass clef, G major (two sharps). The lyrics are: "to - sha - sa - n, — shar - - sha - ra." The piano accompaniment consists of eighth-note chords in the right hand and eighth-note patterns in the left hand.

1.

Continuation of the musical score for section 1. The vocal part continues with the lyrics: "to - sha - sa - n, — shar - - sha - ra." The piano accompaniment continues with eighth-note chords and patterns.

2.

